

FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKKILLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING
O'RNI

Saparova Maftuna

Urganch shahar yuridik texnikumi 2- kurs o'quvchisi

Tel 99 891-994-99-98

saparovamaftuna@mail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o'rni, Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar, Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini, O'zini o'zi tarbiyalash haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit So'zlar: *Fuqarolik jamiyati, konstitutsiyaviy huquq, suverenitet, pulmoliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat, mudofaa, milliy xavfsizlik.*

Abstract: *This article provides information on the role of legal education in the formation of civil society, the first ideas about civil society, a specific interpretation of civil society in the East, and self-education.*

Key Words: *Civil society, constitutional law, sovereignty, monetary finance, taxation, banking policy, foreign policy, defense, national security.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о роли юридического образования в формировании гражданского общества, первых представлениях о гражданском обществе, специфической трактовке гражданского общества на Востоке, самообразовании.*

Ключевые Слова: *Гражданское общество, конституционное право, суверенитет, денежные финансы, налогообложение, банковская политика, внешняя политика, оборона, национальная безопасность.*

KIRISH

Fuqarolik jamiyati — haqiqiy fuqarolardan, ya'ni uzviy bog'liqlikda bo'lgan hamda axloqiy madaniyatga tayanadigan huquqiy va siyosiy madaniyatga ega odamlardan iborat jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati - konstitutsiyaviy huquq nazariyasida huquq va demokratiyaga asoslangan ijtimoiy hayotning zarur oqilona usuli; insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadigan, qonun ustuvorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko'p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadigan hamda o'zini-o'zi boshqarish organlarining mavqei baland bo'lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi

siyosiy, ijtimoiy, iqqisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatadilar, davlatning ko'pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Davlat hokimiyati esa mamlakatning umumiy taraqqiyot rejalarini tuzadi, uning strategiyasini ishlab chiqadi, mudofaa, milliy xavfsizlik, davlat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini, uning suverenitetini ta'minlash, pulmoliya, soliq, bank siyosati, tashqi siyosat va jahon hamjamiyati bilan aloqalar tizimini yaratadi, uni boshqaradi. Fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichmabosqich o'tish orqali ro'y beradi.

ADABIYOTLAR VA METADOLOGIYA

Fuqarolik jamiyati haqida ilk tasavvurlar Aristotelning "Siyosat" asarida bayon etilgan. Unga ko'ra, insonning erkin yashash huquqi kishilik jamiyatining adolat va qonun ustuvorligi asosida tashkil etilishi orqali ta'minlanishi lozim. Jamiyatni boshqarishda qonunlarning to'g'ri va adolatli bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Bu g'oyalar 17-asrga kelib keng rivojlandi. Jumladan, T.Gobbs asarlarida takomillashtiriddi. 18-asr Buyuk fransuz inqilobi davrida Inson va fuqaro huquklari deklaratsiyasi e'lon qilinishi bilan esa Fuqarolik jamiyati tushunchasi keng tarqala boshladi. Chunki jamiyatning teng huquqli a'zolari — "fuqarolar" tushunchasi paydo bo'ldi, ular jamiyat va davlat manfaatlari bilan bog'langan shaxsiy manfaatlarini anglay boshladilar. Kant, Russo, Gegel, Popper ilgari surgan fikrlar Fuqarolik jamiyati ning yangidan-yangi qirralarini, umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyatini ochib berdi.

Sharqda Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqini mavjud. Bu, bevosita, axloq, madaniyat va ma'naviyatning huquq bilan uyg'unlashgan, fe'latvor, xattiharakatlar va qoidame'yorlarning uzviy uyg'unlashgan shakli bilan bog'liq. Jumladan, eng qad. madaniy tarixiyhuquqiy yodgorlik — Avestoda kishilarning uyushib yashashi, o'zaro munosabatlar va aloqalarning axloq va me'yorlarga tayanishi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bunda o'zo'zidan jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish, jamiyatni shaxs tomonidan emas, qonun boshqarishi kabi Fuqarolik jamiyatining ilk belgilari namoyon bo'lgan. Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida mamlakatni boshqarishda adolatli qonun zarurligi, faol Fuqarolik jamiyatini shakllantirish mohiyati chuqur tahlil etilgan. Qonunlari mukammal bo'lgan mamlakatda adolat, inson huquqlari ustuvor bo'lishi muqarrar ekanligi bayon qilib berilgan. Forobiyga kura, "Shahar (mamlakat) aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda

hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi", jinoyatchilik, bezorilik, qonunbuzarlik qonunlar zaif, aholi axloqiy ma'naviy jihatdan barkamol bo'lmagan sharoitda avj oladi. Bunday xalqni tartibga chaqirish uchun kuchli ta'sir o'tkazuvchi hokimiyat kerak bo'ladi. Bu kabi g'oyalar Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa tomonidan ham ilgari surilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan.

Huquqiy ta'lim. Huquqiy ta'lim, avvalo, maktablarda yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Tan olish kerakki, bugungi kunda maktabdagi huquqshunoslik fanlarining o'qitilishi sifat darajasida emas. Bunga asosiy sabab qilib, o'quv soatlarining kamligini aytish mumkin. Haftasida bir soatgina o'rganish ushbu fanni chuqurroq bilish uchun yetarli emas deb hisoblayman. Dars soatining kamligi tufayli bu fandan dars berishga hamma ham ishtiyoq bildirmaydi. Va o'quvchilar tomonidan ham qiziqib o'rganilmaydi. Ammo bu holat huquqshunoslikni yaxshi o'rganolmaslik uchun sabab bo'la olmaydi. Inson o'zi mustaqil o'qib-izlanib, doimiy yangiliklardan xabardor bo'lib, zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak. Ana shundagina o'zining rivoji uchun qanday imkoniyatlar yaratib berilayotganligining guvohi bo'ladi va o'zi ham ushbu imkoniyatlardan foydalanadi.

NATIJARLAR

O'zini o'zi tarbiyalash. Yuqorida aytib o'tgan fikrimiz ham o'zini o'zi tarbiyalashga misol bo'la oladi. Inson hayotdagi voqealarni kuzatish orqali o'zini o'zi tarbiyalashi mumkin. Ya'ni huquq va majburiyatlarini yaxshi bilgan, konstitutsiya va qonunlarga rioya qilgan, yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan insonlar qanday natijalarga erishdi-yu, sust huquqiy nigilizm tarafdori bo'lib, amaldagi qonunlarni mensimasdan, o'zlari xohlaganicha ish tutgan insonlarning taqdiri qanday kechdi? Ana shularni o'ziga ibrat qilib, boshqalar qilgan xatolarni takrorlamaslikka harakat qilishi lozim.

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etish ko'p jihatdan yangi huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liqdir. Ma'lumki, huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni va hatto ular sifati bilan ham emas, balki ularni og'ishmay bajarish bilan belgilanadi. Eng ajoyib qonun ham, agar u amalda bajarilmasa, hech qanday qimmatga ega bo'lolmaydi. Sh.Monteskye o'z zamonasidayoq shunday deb yozgandi: "Qaysi bir mamlakatga o'tlanarkanman, men u yerdagi qonunlarning yaxshiligini emas, ular qanday amalga oshirilayotganini tekshiraman, chunki yaxshi qonunlar hamma yerda uchraydi".

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, huquqiy tarbiyaning vositalari bo'lgan huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash uzviy bog'liqlikda olib borilishi lozim. Chinakam huquqiy davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun, avvalo, aholini, xususan, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish lozim. Bugungi kunda huquqlarning buzilishiga eng ko'p misol qilib, oilaviy zo'ravonliklar va buning natijasida farzandlarning ham ma'nan zaif, huquqiy savodsiz bo'lib qolayotganligini aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-tom.
2. Saydullayev. Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent-2018.
3. Odilqoriyev. X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.Toshkent-2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.